



THE IMPACT OF NEW EDUCATION BASED ON MODERN TECHNOLOGY ON THE MENTAL CAPACITY OF STUDENTS

Nizomov Feruz Rakhmon oglu

UzDZTU, Teacher

Khursanova Dilnoza Izzatillayevna

UzDZTU, Student

Abstract

In our century, which is developing day by day, it is difficult to imagine our life without modern technologies. The orientation of these technologies to the education system helps to make the process of educating students more effective, interesting and interactive. Modern information and communication tools, digital platforms are being used effectively and widely in teaching all subjects at school and university levels. One of the reasons for this is that, while in traditional education, students were taught only to acquire ready-made knowledge, modern technologies teach them to search for the knowledge they acquire themselves, to study and analyze it independently, and even to draw conclusions on their own. Therefore, studying the role of modern tools in the teaching process and their effectiveness is one of the urgent issues in today's educational environment. In this regard, at a videoconference meeting on improving the public education system and raising the spirituality of the younger generation, which was held under the chairmanship of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev, he expressed some thoughts based on technological education: "It is necessary to create a modern and rational system in the field of education, to update teaching methods, educational standards, textbooks and study guides."

Keywords: Digital technologies, education system, efficiency, online platforms, video tutorials, slides, personalized learning, distance learning, individual approach.



Introduction

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYAGA ASOSLANGAN YANGICHA TA'LIMNING O'QUVCHILARNING AQLIY SALOHIYATIGA TA'SIRI

Nizomov Feruz Raxmon o'g'li
O'zDJTU, o'qituvchi

Xursanova Dilnoza Izzatillayevna
O'zDJTU, talaba

Annotatsiya:

Bugungi kundan kunga rivojlanib borayotgan asrimizda hayotimizni zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Bu texnologiyalarning ta'lim tizimiga yo'naltirilganligi o'quvchilarni o'qitish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv shaklga keltirishga yordam bermoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, raqamli platformalar maktab va universitet darajasidagi barcha fanlarni o'qitishda samarali va keng ko'lamda foydalanilmoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi va talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Shu sababli zamonaviy vositalarning o'qitish jarayonidagi roli va ularning samaradorligini o'rganish bugungi ta'lim muhitida dolzarb masalalardan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida ishtirokida bo'lib o'tgan xalq ta'limi tizimini yaxshilash va yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida texnologik ta'limga asoslangan ayrim fikrlarni aytib o'tdilar: "Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarur".

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, ta'lim tizimi, samaradorlik, onlayn platformalar, videodarsliklar, slaydlar, shaxsiylashtirilgan ta'lim, masofaviy ta'lim, individual yondashuv.



INNOVATSIYA (inglizcha, innavation)

yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda, asosan, interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar — bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1533-sonli qarorining chiqishi ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarini yanada kengroq tatbiq etish jarayonini jadallashtirish vazifasi qo‘yildi. Qarorda qo‘yilgan vazifalarning ijrosi sifatida oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’lim sifatini yaxshilash kunning talabi bo‘lib qoldi. Ta’limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi: fan sohalarini axborotlashtirishni; o‘quv faoliyatni intellektuallashtirishni; integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni; ta’lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi. Negaki bu usul o‘quvchilarda an’anaviy dars jarayonida paydo bo‘lgan zerikish hissini kamaytirishga ko‘maklashib, dars davomida ulardagi faollik va motivatsiyani oshiradi va buning natijasida o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirib yuboradi. Animatsiyalar videodarsliklar va slaydlar orqali yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash oson va tez tartibda amalga oshiriladi. Bu mashg‘ulotlar o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi munosabatni yaxshilanishiga ham olib keladi. Bu turdagi dars jarayonida esa o‘quvchilarda quyidagi holatlarni ko‘rishimiz mumkin:

- o‘quvchining dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- o‘quvchilarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlashi;
- o‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o‘quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.



Negaki onlayn platformalar asosida o‘tilgan darslar o‘quvchining e‘tiborini tortish uchun ularning qiziqishiga, yoshiga va aqliy darajasiga binoan tanlanadi va taqdim etiladi. Shuningdek, bu mashg‘ulotlardan ko‘zlangan maqsad shundaki, o‘quvchilar ortiqcha jismoniy va ruhiy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishidir. Bundan tashqari, zamonaviy asrning zamonaviy yoshlari orasidagi ijodkorlik xususiyati ham ko‘pincha aynan shu texnologiyalarga asoslangan bilim manbayidir. Masalan,

- ijodiy xarakterdagi mashqlar;
- guruh topshiriqlari;
- tarbiyaviy, rolli, ishbilarmonlik o‘yinlari, taqlid qilish;
- darslar, ekskursiyalar;
- ijodkorlar va mutaxassislar bilan dars-uchrashuvlar;
- ijodiy rivojlanishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar - ijro darslari, filmlar suratga olish, gazetalarni nashr etish;
- video materiallardan foydalanish, internet orqali ular yangi bilim olish:

Texnologiyalar asosida shaxsiylashtirilgan ta‘lim, ya‘ni har bir o‘quvchi o‘z ustida individual yondashish imkonini rivojlantirishga yo‘l ochib bermoqda. Ilgari o‘qituvchilar har bir bolaga bir xil uslubda dars o‘tishga majbur bo‘lishgan bo‘lsa, hozirda moslashuvchan platformalar ularning aqliy faoliyatiga va darajasiga munosib ravishda moslashib, bilim olish yo‘llarini osonlashtirib beradi. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchi bir ma‘lumotni tushunmagan paytida videodarsliklarni to‘xtatishi yoki mavzuni qayta ko‘rishi mumkin. Bu esa tengdoshlaridan orqada qolish hissini kamaytiradi. Ular shu tartibda o‘qish jarayonini davom ettirsa, ya‘ni o‘zi qiziqish va darajasiga binoan qiziqarli va tushunarli kontentlar bilan ishlasa, uning ichki motivatsiyasi va darsga bo‘lgan ishtiyoqi oshadi.

Ilgari sifatli bilim olish uchun ko‘p pul sarflashi yoki o‘quv kurslariga borishishni talab etgan bo‘lsa, hozirda zamonaviy texnologiyalar bu to‘siqlarni olib tashladi. Masalan, masofaviy ta‘lim, o‘quvchilar dunyoning istalgan yeridan turib, virtual tarzda hattoki MIT, Harvard yoki Coursera va boshqa turdagi davlat miqyosidagi kurslardan foydalana oladi va dunyo bo‘ylab do‘stlar orttirishi ham mumkin. O‘qituvchining bu kabi innovatsion faoliyati o‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarining maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi.



Xulosa

Ta'lim tizimiga texnologiyalarning kirib kelishi shunchaki zamonaviy talab emas, balki o'quvchi salohiyatini ochib beruvchi kuchli vositadir. Ta'limda texnologiyalardan oqilona foydalanish o'quvchilarda nafaqat fan bo'yicha bilimlarni, balki XXI asr uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. Raqamli savodxonlik va texnologik faollik zamonaviy o'quvchining muvaffaqiyatli kelajagi uchun muhim poydevordir. Yakuniy xulosa shuki, texnologiya va pedagogik mahoratning uyg'unligi kelajak avlodni o'zgaruvchan dunyoga tayyorlashning eng samarali strategiyasidir. Zero, bugungi texnologik imkoniyatlar — ertangi kunning yuksak natijalari uchun sarmoyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.2004
2. Ishmuhamedov R. Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma.-T;2013
3. Feruzbek Nizomov. (2025). TEACHING ENGLISH EFFECTIVELY IN MODERN CLASSES. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(2), 382–384. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14871517>
4. Azizxujayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.:TDPU, 2003.
5. Begimkulov U.S Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya.-T; Fan, 2007.